



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

HOJI MUIN PUBLITSISTIKASIDA QO'LLANGAN SIFATLASHLARNING FUNKSIONAL – USLUBIY IMKONIYATLARI

FUNCTIONAL-STYLISTIC POTENTIAL OF EPITHETS USED IN HOJI MUIN'S PUBLICISTIC WORKS

Doniyor TOJIBOYEV,

ToshDO'TAU mustaqil tadqiqotchisi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NFOB3730

Annotation. *The article explores the stylistic potential of epithets used in the publicistic articles of the Jadid writer Hoji Muin. It examines the expression of denotative and connotative meanings through common and authorial epithets, their semantic-stylistic features, and their significance in creating expressiveness in the language of the articles.*

Key words: *lexical-stylistic depiction, imagery, poetism, artistic epithet, common language epithets, individual epithets, subjective-emotional attitude, model of the qualified, syntactic construction.*

Hoji Muin publitsistik maqolalari tilida qo'llangan leksik-stilistik tasvir vositalaridan yana biri **sifatlash(epitet)**dir. Sifatlash keng ma'noda predmet belgilaridan birini kuchaytirish va shu orqali kitobxon diqqatini jalb etish hamda ifodaviylikni oshirish maqsadida qo'llanadigan poetik usul sanaladi [1;26]. Bunda obyektning qaysidir bir jihati oddiy aniqlovchi bilan emas, balki muallifning olamning lisoniy manzarasini individual his qilishi natijasida, badiiy fikrlashi jarayoni mahsuli sifatida yuzaga keladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, predmetning sifatini tasvirli, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan so'z, tropning bir turiga sifatlash deyiladi [2;91]. Bunday leksik-stilistik vosita orqali badiiy yoki publitsistik uslubda narsa-predmet, voqea-hodisaga poetik aniqlik, rang-baranglik beriladi, shu asosda ifodaviylik kuchaytiriladi. Bu usul turli leksik vositalar, chunonchi, neytral so'zlar va neytral bo'lmagan, nutqning biror turi uchun uslubiy xoslangan leksemalar yordamida ham yuzaga keltiriladi. Uslubiy neytral bo'lgan so'zlar sifatlash vazifasida kelganda aniqlovchilarga o'xshab ketadi. Bunday sifatlash aksariyat hollarda leksemaning hosila ma'anosi negizida voqelangan bo'ladi va shu xususiyatga ko'ra u aniqlovchi emas, sifatlash hisoblanadi.

Sifatlash narsa yoki predmetning ma'lum tomoni oddiy aniqlovchi bilan emas, balki muallifning olamning lisoniy manzarasini individual his qilishi natijasidagi, badiiy fikrlashi jarayonida obrazli so'z qo'llashida hosil bo'ladi. Demak, sifatlash – predmetning biror xususiyatini ajratib ko'rsatish yoki unga boshqa bir predmetga xos xususiyatni ko'chirishdan iborat badiiy-tasviriy vosita. “Tilning barcha funksional uslublarida: badiiy, publitsistik, jonli-so'zlashuv, ilmiy nutqlarda keng qo'llanadigan, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik darajasi u qadar kuchli bo'lmagan, ma'no xususiyatiga ko'ra aniqlovchiga yaqin turadigan va ko'pincha sifat turkumidagi so'zlar bilan ifodalanuvchi *qora soch, mayin ovoz, poyonsiz cho'l* kabi *umumtil sifatlashlari* bilan asosan badiiy, publitsistik nutqda qo'llanadigan, obrazlilik va emotsional-ekspressivlik darajasi kuchli bo'lgan, yozuvchi, shoir yoki publitsistning narsa va hodisani obrazli gavdalandirish, bir turdagi predmetlarning o'ziga xos ayrim belgi, xususiyatlarini yorqinlashtirish maqsadida

individual uslubi bilan bog'liq holda yuzaga kegan *badiiy - individual nutq sifatlashlari* o'zaro farqlanadi" [3;17].

Badiiy tildagi kabi publitsistik nutda ham *individual nutq sifatlashlari* bir turdagi predmet, voqea-hodisalarning biror belgisini ifodalab, ijodiy individuallikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida narsa-hodisalarning kutilmagan jihatlarini tavsiflaydi. Publitsistik uslub tilida tasvirning jonli bo'lishida, asarning estetik ta'sir kuchini oshirishda bunday leksik tasviriy vosita ham muhim rol o'ynaydi. Hoji Muin Shukrullo o'g'lining hajviy hamda turli itimoiy-siyosiy mavzulardagi publitsistik maqolalarida umumtil sifatlashlari keng qo'llangani holda, o'quvchining diqqatini tasvir predmetining muhim xususiyatiga qaratish, voqea-hodisani obrazli gavdalantirishda *badiiy*, ya'ni *individual nutq sifatlashlarini* yuzaga keltirganligi kuzatiladi: "*Millatni bo'yniyo'g'onliq uyqusidan uyg'otub, dangasalik vodiysidan uch-to'rt qadam yetaklab bir chetga chiqarmoqqa ham muvaffaq bo'lolmadim*" [4;149]. Muallifning "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 19-noyabrdagi sonida chop etilgan "Tayoq" nomli hajviyasidan keltirilgan mazkur parchada *bo'yniyo'g'onliq uyqusi* sifatlashi – *jaholat* ma'nosida; *dangasalik vodiysi* sifatlashi esa – *ma'rifatsizlar jamiyati* ma'nosida original qo'llangan xususiy sifatlashlardir. Bu sintaktik qurilmalar ijobiy va salbiy ottenkaga ega bo'lgan leksemalarning sifatlovchi-sifatlanmish modelida zidlanishi orqali o'ziga xos tarzda, mohirona ijod qilingan. Fikrning emotsional ta'sirchanligini kuchaytirgan, o'quvchi ko'z o'ngida voqea-hodisani ortiqcha izohlarsiz gavdalantirishga xizmat qilgan.

"Bu voqeadan ko'p o'tmay, *qorinparvar mullalar* bilan taraqqiyparvar jadidlar orasida vaqf ustida katta janjal chiqib, natijada barcha vaqflar *nahang komiga* ketadur" (TA, 160-bet); "Zolim Nikolay zamonida bo'lg'on *arzonchilik parisi* qaytadan dunyoga kelib, xalqqa muhibona salom beradur" [4;161]; Bu parcha muallifning "Oxir zamon alomatlari" nomli hajviyasidan olingan. Maqolada qo'llangan *qorinparvar mullalar*; *nahang komi*; *arzonchilik parisi* kabi sifatlashlar salbiy qahramonlar va jamiyatdagi salbiy illatlarni ifodalash maqsadida hosil qilingan. Ularda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik kuchli bo'lib, bu xususiyat sifatlashlarni hajviy, kinoyaviy mazmundagi nutqda qo'llanishi uchun asos bo'lgan va muallifning individual ifoda maqsadi uchun bo'ysindirilgan.

Bunday original qo'llanishlar sifatlovchi va sifatlanmish modelining murakkablashgan formasida ham voqelantirilgan: "*Balki bu daf'a og'iz bilan ish bitiruvchilar* so'z va qaror majlisidan badarg'a qiling'ay. Ularning o'rnida maorif qurbonlig'ig'a munosib *qo'ymijozlik semizgina kishilar* ishg'a oling'ay" [4;165]; "Maorif oyi" munosabati bilan "Mashrab" boshqarmasi o'zining barcha ajina muxbirlariga safarbarlik e'lon qildi" [4;166]; "Biz bu oyda "astoydil" ishlagan maorif xodimlariga o'zimizning *xolis "barakallo"dan yasalg'on medallarimizni* in'om etishni va'da aylab, ammo chatoqchi o'rtoqlarimizning suratini pes-moxov qilib "Mashrab"ga o'tkazishdan ham tortinmasmiz" [4;166]. Keltirilgan misollar muallifning "Mashrab" gazetasining 1934-yil 5-sonida bosilgan "Maorif oyi" nomli hajviyasidan olingan. Matndagi *og'iz bilan ish bitiruvchilar*; *qo'ymijozlik semizgina kishilar*; *xolis "barakallo"dan yasalg'on medallar* kabilar murakkab tarkibli sifatlovchi-sifatlanmish bog'nanishidagi birikmalar hisoblanadi. Ularda subyektning predmetga salbiy munosabati sifatlovchi komponent (*og'iz bilan*; *qo'ymijozlik semizgina*; *xolis "barakallo"dan yasalg'on*)larning metaforik ko'chimi asosida shakllantirilgan. Ayrim o'rinlarda odatdagi erkin bog'lanishli so'z birikmalari asosida sifatlovchi-sifatlanmish bog'lanishli epitetlar

hosil qilinib, maqolaga sarlavha sifatida ham tanlangan. Jumladan, “Mashrab” gazetasining 1925-yil, 20-sonida e’lon qilingan hajviy maqolaga **“Bizda sog’liqni qashatish ishlari”** deb nom berilgan va Samarqand shahridagi sog’liqni saqlash borasidagi ishlar achchiq tanqid, kulgu ostiga olingan. Kuzatganimizdek, adibning hajviy maqolalarida individual qo’llanishdagi epitetlar, keng qo’llangan. Muallif uslubi bilan bog’liq bunday o’ziga xos birikmalarning lisoniy imkoniyati nutq kechimida oydinlashgan. Bunday badiiy - individual nutq sifatlashlarida muallifning ham subyektiv, ham emotsional munosabatlari yaqqol ko’zga tashlanadi, ularning nutq kechimida turli pragmatik axborot tashishi, aynan achchiq kinoya ifodalashi kuzatiladi.

Adib maqolalari matnida qo’llangan sifatlashlar publitsistik nutqda tasviriylikni ta’minlagan, predmet, voqea-hodisaning biror tashqi belgisini ajratib ko’rsatish, tasvirlash jarayonida badiiy ifodani kuchaytirgan. Ularning aksariyati metaforik sifatlashlar hisoblanadi. Bu kabi sifatlashlar anglatgan predmet yoki voqea-hodisaning belgi-xususiyatlari haqiqatga to’g’ri kelishi yoki kelmasligi, mavjud bo’lishi yo bo’lmasligi nuqtayi nazaridan obrazli va o’ta obrazli metaforik sifatlashlarni yuzaga keltirgan. Bu esa maqolalarda biror narsa va holat haqidagi tasavvurni boyitishda, o’z tasvir predmetinining muhim xususiyatlarini ko’rsatishda sifatlash badiiy san’atining eng go’zal namunalaridan foydalangan.

Umuman olganda, Hoji Muin maqolalarida qo’llangan oxshatish va sifatlashlar leksik-stilistik vositalar sifatida muallif tasvir etmoqchi bo’lgan predmetlarning muhim xususiyatlarini ko’rsatishda nutqni pardozlovchi, jilolantiruvchi vosita sifatida adibning so’z tanlash va fikrni ohorli ifodalarda berish mahoratini o’zida namoyon qilgan, publitsistik nutq va uslub tilining jozibadorligini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воронова А. Эпитеты и определение в языке Камоэнса. Автреф. дисс. канд... филол. наук. – М., 1999. – 26 с.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б. 91.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 17.
4. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 256 б.

